



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.09.2024 yildagi PQ-345-son

Кучга кириш санаси

05.10.2024

Қўшимча ахборот

Улашиш

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MALAKA TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA- TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Milliy malaka tizimini rivojlantirish, mehnat bozori va ta'limning o'zaro integratsiyasini ta'minlash, malakaga bo'lgan talablarni huquqiy va institutsional jihatdan tartibga solish hamda barcha uchun hayoti davomida ta'lim olish va mehnat faoliyatini izchil davom ettirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida:

1. Quyidagilar Milliy malaka tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilansin:

Milliy malaka tizimining normativ-huquqiy, institutsional va uslubiy asoslarini takomillashtirish;

xalqaro standartlar asosida Mashg‘ulotlar, kasb va lavozimlar milliy klassifikatorini ishlab chiqish va rivojlantirish;

malaka ramkalari, kasbiy standartlar va malaka talablarini ish beruvchilar talablari asosida ishlab chiqish, joriy qilish va rivojlantirish;

yangi avlod kasbiy standartlar asosida mehnat munosabatlarini tartibga solish, oliy va professional ta'lim dasturlarini takomillashtirish hamda kadrlar tayyorlash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish;

malakalarning xalqaro miqyosda tan olinishini, milliy malaka darajalarining ilg‘or xorijiy davlatlar malaka darajalari bilan integratsiya qilinishini ta'minlash;

norasmiy va informal orttirilgan ko‘nikma va malakalarni tan olish (“Recognition of Prior Learning”) tizimini joriy qilish;

ko‘nikmalarni prognozashtirish (“skills anticipation”), ko‘nikmalarga bo‘lgan ehtiyojlarni tahlil qilish (“skills needs analysis”), ko‘nikmalar bilan bog‘liq kamchiliklarni o‘rganish (“skills gap analysis”) vositalari va metodologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish;

Milliy malaka tizimini to‘laqonli yo‘lga qo‘yish bo‘yicha strategik rejalar ishlab chiqish hamda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish;

Milliy malaka tizimini rivojlantirish jarayonlarini monitoring qilish, jamoatchilik fikrini o‘rganish va axborot almashinuvini samarali yo‘lga qo‘yish.

2. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasining milliy malakalar ramkasi [1-ilovaga](#) muvofiq;

Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha respublika kengashi (keyingi o‘rinlarda — Respublika kengashi) tarkibi [2-ilovaga](#) muvofiq;

Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha respublika kengashining asosiy vazifalari [3-ilovaga](#) muvofiq;

Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashlari (keyingi o‘rinlarda — tarmoq kengashlari) faoliyatini tashkil etish uchun mas‘ul vazirlik va idoralar ro‘yxati [4-ilovaga](#) muvofiq;

Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashlarining asosiy vazifalari [5-ildovaga](#) muvofiq;

2025-2026-yillarda kasbiy standartlarni ishlab chiqish reja-jadvali [6-ildovaga](#) muvofiq;

O'zbekiston Respublikasida Milliy malaka tizimini tubdan modernizatsiya qilish hamda ushbu sohada ilg'or xorijiy tajribani joriy etish bo'yicha "yo'l xaritasi" [7-ildovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

3. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisining (keyingi o'rinlarda — Loyiha ofisi):

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Mehnat bozori tadqiqotlari institutining 40 ta shtat birligini qisqartirish hisobiga Loyiha ofisi huzuridagi Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutini (keyingi o'rinlarda — Institut) tashkil etish;

Mehnat bozori tadqiqotlari instituti moddiy-texnika bazasi, bino va inshootlari hamda avtotransport vositalarining qisqartirilayotgan shtat birliklariga mutanosib qismini Institutga berish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

4. Belgilansinki:

Institut yuridik shaxs maqomiga ega davlat muassasasi hisoblanadi;

Institut faoliyatini moliyalashtirish 2024-yilda Bandlikka ko'maklashish jamg'armasidan ajratiladigan maqsadli ajratmalar hisobidan, 2025-yildan boshlab esa Bandlikka ko'maklashish jamg'armasiga tegishli miqdordagi budjetdan ajratmalarni qisqartirish orqali Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutiladigan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi;

Oldingi tahrirga qarang.

Toshkent shahri Olmazor tumani Talabalar shaharchasi 5/1-uy manzilida joylashgan bino va inshootlar tegishli hududi bilan birga operativ boshqaruv huquqi asosida Institutga o'tkaziladi.

(4-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi PF-190-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.10.2025-y., 06/25/190/0985-son)

5. Quyidagilar:

Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining faoliyatini tashkil etish tartibi [8-ildovaga](#) muvofiq;

Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti faoliyatining 2025-2026-yillar uchun asosiy maqsadli ko'rsatkichlari [9-ildovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

6. Loyiha ofisi (A. Xudaykulov) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

a) 2025-yil 1-fevralga qadar Institutda Milliy malaka tizimini rivojlantirish bo'yicha malaka oshirish kurslarini yo'lga qo'ysin;

b) 2025-yil 1-sentabrga qadar:

mehnat bozori va ta'lim integratsiyasini ta'minlash maqsadida ko'nikmalarga bo'lgan ehtiyoj bo'yicha tahliliy ma'lumotlar va takliflar tayyorlasin;

kasbiy standartlar asosida natijaga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqsin;

malakalarni baholash markazlarini uslubiy qo'llab-quvvatlash maqsadida asosiy baholash mezonlarini ishlab chiqsin;

v) 2025-yil 1-noyabrga qadar, shu jumladan, quyidagi imkoniyatlarni taqdim etuvchi Milliy malaka tizimining yagona raqamli platformasi ishlab chiqilishini va amaliyotga kiritilishini ta'minlasin:

tarmoq kengashlari, milliy va tarmoq malaka ramkalari, Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori, tasdiqlangan kasbiy standartlar, ekspertizadan o'tkazilgan va amalga kiritilgan ta'lim dasturlari reyestri, malakalarni baholash markazlari to'g'risidagi ma'lumotlar, Milliy malaka tizimini rivojlantirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar va uslubiy qo'llanmalar bilan erkin tanishish va ulardan foydalanish;

kasbiy standartlar loyihalarini ishlab chiqish, muhokamadan o'tkazish va manfaatdor tomonlar bilan kelishish;

talabgorlar tomonidan malakani baholash va tan olish uchun ariza berish, imtihon natijalari to'g'risida ma'lumot olish hamda malakalarni baholash markazlari qarori ustidan apellyatsiya berish;

kasbiy malakani baholash va tan olish to'g'risida berilgan yoki bekor qilingan hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan erkin tanishish;

g) 2026-yil 1-dekabrga qadar ilg'or xorijiy tajriba asosida 1 800 ta kasbni qamrab oluvchi kasbiy standartlar ishlab chiqilishini va amaliyotga kiritilishini ta'minlasin.

7. Belgilansinki:

tarmoq kengashlarining ishchi organi inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'linmalari, yirik tarmoq korxonalari, sohaga oid ilmiy-tadqiqot va ta'lim tashkilotlari bo'lishi mumkin;

ishchi organ tarmoq kengashlari bilan kelishilgan holda ishlab chiqilayotgan kasbiy standartlar va boshqa hujjatlarning xususiyatlarini inobatga olib, ekspertlar ishchi guruhlarini tashkil etishga haqli;

tarmoq kengashlarining faoliyatini tashkil etish uchun mas'ul bo'lgan vazirlik va idoralar ekspertlar ishchi guruhlarining ishlariga jalb etiladigan xodim va ekspertlarga o'z mablag'lari hisobidan mukofot puli to'lashi mumkin.

8. Tarmoq kengashlari faoliyatini tashkil etish uchun mas'ul bo'lgan vazirlik va idoralar ikki hafta muddatda o'zlarining markaziy apparati tuzilmasida umumiy shtat birliklari doirasida ushbu qarorga [4-ilovaga](#) muvofiq kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha alohida bosh mutaxassis (keyingi o'rinlarda — mas'ul mutaxassis) lavozimini kiritsin.

Mas'ul mutaxassis zimmasiga quyidagi vazifalar yuklansin:

tarmoq kengashi kotibi vazifasini bajarish, uning ish rejasini shakllantirish va amalga oshirish masalalari bo'yicha materiallar va takliflarni umumlashtirish;

tarmoq kengashi vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan materiallar va hujjatlarning ekspertiza uchun taqdim etilishini ta'minlash;

tarmoq kengashi a'zolari bilan hamkorlikda tarmoq malaka ramkalari va kasbiy standartlarni ishlab chiqish bo'yicha kichik ishchi guruhlarini tashkil etish;

ekspertlar, manfaatdor ta'lim tashkilotlari va ilmiy muassasalar bilan o'zaro hamkorlik qilish;

tarmoq kengashlariga biriktirilgan mas'ul xodimlar va ekspertlar faoliyatini muvofiqlashtirish.

Belgilansinki, mas'ul mutaxassislar uchun ajratilgan shtat birliklarini qisqartirish Respublika kengashi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

9. Respublika kengashi (A. Aripov):

bir oy muddatda tarkibining kamida 50 foizi ish beruvchilarning vakillaridan iborat bo'ladigan tarmoq kengashlari tarkiblari tasdiqlanishini;

ikki oy muddatda tarmoq kengashlariga sohaviy taalluqliligi bo'yicha yirik ish beruvchi tashkilotlar, xo'jalik birlashmalari hamda tayanch ta'lim muassasalarining biriktirilishini;

2024-yil yakuniga qadar ilg'or xorijiy tajriba asosida tarmoq malaka ramkalari ishlab chiqilishi va amaliyotga kiritilishini;

2025-yil yakuniga qadar barcha tarmoqlar kesimida ehtiyoji eng yuqori bo'lgan kasbiy faoliyat sohalari (turlari) bo'yicha kasbiy standartlar ishlab chiqilishini ta'minlasin.

10. O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (A. Jumanazarov) Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B. Zaxidov), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov), Loyiha ofisi (A. Xudaykulov), boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

2024-yil 1-dekabrga qadar xalqaro tajriba va standartlar asosida Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatorining qayta ko'rib chiqilishini va o'rnatilgan tartibda tasdiqlanishini;

2025-yil 1-avgustga qadar Mashg'ulotlarning xalqaro standart klassifikatori (MXSK-2008)dan kelib chiqib Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori ishlab chiqilishi va belgilangan tartibda

tasdiqlanishini ta'minlasin.

Belgilansinki, ushbu klassifikatorlar tarmoq kengashlari takliflari hamda mehnat bozori tahlili asosida Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan yangilab boriladi.

11. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (O. Fozilkarimov) ikki oy muddatda Mashg'ulotlarning milliy klassifikatorini ishlab chiqish hamda Milliy malaka tizimining yagona raqamli platformasini yaratish uchun davlat ilmiy dasturlari doirasida grantlar ajratish choralari ko'rsin.

12. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi (A. Djurabayev) O'zbekiston Milliy axborot agentligi (A. Ko'chimov) bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari orqali mazkur qaror amalga oshirilishi to'g'risida aniq ko'rsatkichlar va natijalarni ifodalagan holda, axborot-tahliliy sharhlarni tizimli ravishda tayyorlash va e'lon qilish choralari ko'rsin.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrdagi "Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4939-son **qarori** o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

14. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

15. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisi direktori A.Yu. Xudaykulov, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri K.A. Sharipov hamda kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri B.E. Zaxidov belgilansin.

Qaror ijrosini nazorat qilish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2024-yil 30-sentabr,
PQ-345-son

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 30-
sentabrdagi PQ-345-son **qaroriga**
1-ILOVA

O'zbekiston Respublikasining milliy malakalar ramkasi

1-bob. Umumiy qoidalar

1. O'zbekiston Respublikasining milliy malakalar ramkasi (keyingi o'rinda — Milliy malakalar ramkasi) mehnat bozori va ta'lim tizimini bog'lovchi vosita bo'lib, malaka darajalarining umumlashtirilgan tavsifi va ularga O'zbekiston Respublikasi hududida erishishning asosiy yo'llarini belgilaydi.

2. Milliy malakalar ramkasi O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimining tarkibiy qismi bo'lib, o'qitish natijalarini milliy baholash tizimini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

3. Milliy malakalar ramkasi tarmoq malaka ramkalarini, kasbiy standartlar va ta'lim dasturlarini hamda milliy va xalqaro darajadagi ta'limning barcha darajalari uchun malakalarga erishish va tan olish mexanizmlarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

2-bob. Milliy malakalar ramkasining mazmuni

4. Milliy malakalar ramkasini joriy qilish quyidagilar uchun imkon yaratadi:

kasbiy standartlar va ta'lim dasturlarini yagona uslubiy asosda ishlab chiqish;

o'qitish natijalari, malaka va kompetensiyalarga qo'yiladigan talablarni yagona nuqtai nazardan tavsiflash;

ishga qabul qilish, xodimlarni tashkilot ichida va tashkilotlararo vertikal va gorizontaal harakatlantirish jarayonida malaka talablarini belgilash;

baholash vositalarini va ta'limning barcha bosqichlaridagi bitiruvchilar malakasini aniqlash tartibini ishlab chiqish;

mehnat bozori va ta'lim tizimini rivojlantirishning umumiy strategiyasini shakllantirish, shu jumladan, muayyan malaka olishga, malaka darajasini oshirishga va martaba o'sishiga olib keladigan turli ta'lim trayektoriyalarini rejalashtirish.

5. Milliy malakalar ramkasi Yevropa malakalar ramkasiga va O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi **Qonuniga** muvofiq bo'lgan sakkizta malaka darajasini, shuningdek, mos malakalar darajalariga erishishning asosiy yo'llarini o'z ichiga oladi.

6. Milliy malakalar ramkasi jadval ko'rinishida shakllantirilgan bo'lib, unda har bir malaka darajasi bo'yicha kasb faoliyatini amalga oshirish uchun talab qilinadigan bilimlar, mahorat va ko'nikma, mas'uliyat va mustaqillik, shuningdek, tegishli malaka darajasiga erishish yo'llari belgilanadi, ularning batafsil tafsilotlari esa tarmoq malaka ramkalari va kasbiy standartlarda aks ettiriladi.

7. Milliy malakalar ramkasi quyidagi prinsiplarni hisobga olgan holda qo'llanadi:

keng qamrovlilik — ta'limning barcha turlarini, shu jumladan, norasmiy va informal o'qitish jarayonlarini qamrab olishi va zamonaviy malaka turlarini aks ettirishi;

shaffoflik va taqqoslanuvchanlik — xalqaro taqqoslash uchun qo'llanma vazifasini bajarishi;

oddiydan murakkabga — quyi bosqichdan yuqori darajaga o'tishda o'qitish natijalarining ortishi va murakkabligini aks ettirishi;

moslashuvchanlik — mehnat bozorida paydo bo'ladigan malakalarning yangi turlarini ishlab chiqish va malaka ramkasiga oson integratsiya qilish imkonini berishi.

8. Milliy malakalar ramkasidagi ko'rsatkichlar quyidagicha tavsiflanadi:

a) "bilimlar" ko'rsatkichi kasbiy faoliyatda foydalaniladigan bilimlarga qo'yiladigan talablarni belgilaydi hamda quyidagilar bilan ifodalanadi:

foydalanilayotgan axborotning hajmi va murakkabligi;

qo'llanayotgan bilimlarning innovatsiyaviyligi;

nazariy va amaliy bilimlar nisbati;

b) "ko'nikma (mahorat)" ko'rsatkichi ko'nikmalarga qo'yiladigan talablarni belgilaydi hamda quyidagilar bilan ifodalanadi:

kasbiy vazifalarni hal qilish yo'llarining xilma-xilligi (variativligi);

kasbiy vazifalarni hal qilish yo'llarini tanlash yoki ishlab chiqish zarurati;

v) "mas'uliyat va mustaqillik" ko'rsatkichi xodimning umumiy kompetensiyasini belgilaydi hamda quyidagilar bilan ifodalanadi:

rahbarlik ostidagi faoliyat;

mustaqil ijro intizomi;

rahbarlik faoliyati;

faoliyat ko'lami — vakolat va mas'uliyatning kengligi, javobgarlik, kasbiy faoliyatdagi ehtimoliy xatoning oqibatlari;

g) "malaka darajasiga erishish yo'llari" ko'rsatkichi kasbga o'qitish, ta'lim va amaliy ish tajriba bilan bog'liq holda tegishli malaka darajasiga erishish yo'llarining moslashuvchanligi va xilma-xilligini ta'minlovchi sifatida ifodalanadi.

9. Milliy malakalar ramkasi asosida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashlari ish beruvchilar birlashmalari bilan hamkorlikda tarmoq malaka ramkalarini hamda kasbiy standartlarni ishlab chiqadi.

3-bob. Milliy malakalar ramkasining tuzilishi

Malaka darajasi	Bilim	Ko'nikma (mahorat)	Mas'uliyat va mustaqillik	Malaka darajasiga erishish yo'llari
-----------------	-------	--------------------	---------------------------	-------------------------------------

1.	O‘quv yoki kasbiy faoliyat sohasi bo‘yicha elementar va boshlang‘ich umumiy bilimlar	Belgilangan qoidalarga muvofiq standart va oddiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar	O‘z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; O‘zganing bevosita nazorati va kuzatuvi ostida ishlash	boshlang‘ich ta’lim + ish joyida qisqa muddatli o‘qitish (instruktaj) yoki qisqa muddatli kurslar yoki amaliy tajriba
2.	O‘quv yoki kasbiy faoliyat sohasi bo‘yicha umumiy amaliy bilimlar	Standart vazifalarni oddiy qoidalar va instrumentlar yordamida bajarish va yo‘riqnoma bo‘yicha harakat qilish uchun zarur bo‘lgan amaliy va kognitiv ko‘nikmalar	O‘z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; Nazorat ostida standart va oddiy vazifalarni bajarish	1) umumiy o‘rta ta’lim 2) tayanch o‘rta ta’lim + ish joyida qisqa muddatli o‘qitish (instruktaj) yoki qisqa muddatli kurslar yoki amaliy tajriba
3.	O‘quv yoki kasbiy faoliyat sohasi bo‘yicha umumiy amaliy va kasbiy bilimlar	Belgilangan vazifalarni bajarish va muammolarni hal qilish uchun asosiy usullar, vositalar, materiallar va ma’lumotlarni saralash va foydalanish uchun zarur bo‘lgan amaliy va kognitiv ko‘nikmalar	O‘z harakatlari, ish natijalari va boshqalarning harakatlari uchun javobgarlik; Muammolarni hal qilishda zaruratdan kelib chiqib mustaqil qaror qabul qilish	1) boshlang‘ich professional ta’lim 2) o‘rta maxsus ta’lim 3) umumiy o‘rta ta’lim + norasmiy (informal) ta’lim yoki amaliy tajriba
4.	O‘quv yoki kasbiy faoliyat sohasi bo‘yicha keng qamrovli amaliy va nazariy bilimlar	Mehnat holati va uning oldindan aytish mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarini baholashni talab qiladigan muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan amaliy va kognitiv ko‘nikmalar	O‘z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; O‘quv yoki kasbiy faoliyat sohasida o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtirish va tashkil qilish	1) o‘rta professional ta’lim 2) umumiy o‘rta (o‘rta maxsus) ta’lim yoki boshlang‘ich professional ta’lim + norasmiy (informal) ta’lim yoki amaliy tajriba

5.	O‘quv yoki kasbiy faoliyat sohasi bo‘yicha ixtisoslashgan nazariy va amaliy bilimlar	Muammolarga ijodiy yechimlarni ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan keng qamrovli amaliy va kognitiv ko‘nikmalar	Biriktirilgan xodimlar harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; O‘quv yoki kasbiy faoliyat sohasidagi mehnat jarayonlarini mustaqil boshqarish va nazorat qilish, shuningdek, biriktirilgan xodimlar mehnatini tekshirish va rivojlantirish	1) o‘rta maxsus professional ta’lim 2) boshlang‘ich professional ta’lim yoki o‘rta professional ta’lim + norasmiy (informal) ta’lim yoki amaliy tajriba
6.	O‘quv yoki kasbiy faoliyat sohasi bo‘yicha keng va integratsiyalashgan bilimlar, jumladan, ilmiy asoslar, ilmiy va nazariy muammolarni amaliy qo‘llash, shuningdek, eng muhim nazariyalar va usullar	Turli standartlar va tez-tez o‘zgarib turadigan talablarni hisobga olgan holda yangi yechimlarni ishlab chiqish, faoliyat, usullar va ularning natijalarini baholash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar	Oldindan aytib bo‘lmaydigan o‘quv yoki kasbiy faoliyat muhitida qarorlar qabul qilish va biriktirilgan xodimlarning kasbiy rivojlanishini boshqarish uchun javobgarlik; O‘quv yoki kasbiy faoliyat sohasida qarorlar qabul qilish va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, murakkab texnik va kasbiy faoliyat va loyihalarni boshqarish, biriktirilgan xodimlarning professional rivojlanishiga rahbarlik qilish va jamoadagi muammolarni hal qilish	1) bakalavriat 2) o‘rta maxsus professional ta’lim va amaliy tajriba
7.	O‘quv yoki kasbiy faoliyat sohasi bo‘yicha innovatsion yondashuvlar va/yoki ilmiy tadqiqotlarga asoslangan yuqori ixtisoslashgan bilimlar, shuningdek, bir soha yoki turli sohalarga oid o‘zaro bog‘liq bilimlar	Yangi bilim va texnologiyalarni ishlab chiqish va turli sohalardagi bilimlarni birlashtirish uchun ilmiy tadqiqot va/yoki innovatsiyalarda talab qilinadigan muammolarni, shu jumladan, strategik muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan maxsus kasbiy ko‘nikmalar	Oldindan aytib bo‘lmaydigan sharoitlarda qaror qabul qilish, jamoalar strategik faoliyatini ko‘rib chiqish uchun javobgarlik; Yangi strategik yondashuvlarni talab qiladigan murakkab, oldindan aytib bo‘lmaydigan kasbiy faoliyat yoki o‘quv muhitini boshqarish, loyihalash va o‘zgartirish	1) magistratura 2) yuqori darajadagi qo‘shimcha ta’lim (internatura, ordinatura, biznes boshqaruvi, davlat boshqaruvi va boshqa xalqaro tan olingan ta’lim) 3) mutaxassislik (spetsialitet) 4) bakalavriat va amaliy tajriba
8.	Murakkab g‘oyalarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va sintez qilish uchun zarur bo‘lgan ilmiy va kasbiy faoliyat sohasidagi eng ilg‘or innovatsion va ixtisoslashgan bilimlar	Yangi bilim va yechimlarga olib keladigan loyihalarni tadqiq qilish, ishlab chiqish va amalga oshirish, ilmiy va innovatsion faoliyat natijalarini prognoz qilish, kasbiy va ijtimoiy sohada keng ko‘lamli o‘zgarishlarni amalga oshirish, murakkab sanoat va ilmiy jarayonlarni boshqarish, ixtisoslashgan ilmiy tadqiqot, ishlanmalar va innovatsiyalar sohasidagi yangi muammolarni aniqlash va yechimlarini topish uchun zarur bo‘lgan eng ilg‘or va maxsus ko‘nikmalar	O‘zining va ilmiy jamoaning tadqiqot natijalari, shuningdek, ularning sanoatdagi mamlakat va xalqaro miqyosdagi iqtisodiy samarasi uchun mas’uliyati; Yirik institutsional tuzilmalar darajasida qarorlar qabul qilish va strategiyani belgilash, murakkab ijtimoiy, sanoat va ilmiy jarayonlarni boshqarish, yangi va murakkab g‘oyalarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va sintez qilish, jamiyatning texnik, ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti uchun strategik qarorlar qabul qilish	1) doktorantura (PhD, DSc), unga tenglashtirilgan va undan yuqori bo‘lgan xorijiy davlatlar ilmiy darajalari 2) magistratura yoki ilmiy unvon olishga yo‘naltirilgan oliy ta’limdan keyingi ta’lim + amaliy tajriba 3) yuqori darajadagi qo‘shimcha ta’lim (internatura, ordinatura, biznes boshqaruvi, davlat boshqaruvi va boshqa xalqaro tan olingan ta’lim) va amaliy tajriba

Izoh:

1) 2005-yilga qadar texnikumlarda olingan ta'lim, shuningdek, kasb-hunar kollejlari, o'rta hunar-texnika bilim yurtlari va hunar-texnika bilim yurtlarida olingan ta'lim o'rta professional ta'limga, texnika bilim yurtlarida olingan ta'lim esa — boshlang'ich professional ta'limga, tugallanmagan bakalavriat bosqichi — o'rta maxsus professional ta'limga tenglashtiriladi;

2) Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashiga mazkur jadvalga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqi beriladi.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 30-
sentabrdagi PQ-345-son qaroriga
2-ILOVA

Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashi

TARKIBI

1. A.N. Aripov	— O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Respublika kengashi raisi
2. A.Yu. Xudaykulov	— “Ta’lim sohasidagi loyihalar markazi” loyiha ofisi direktori, Respublika kengashi raisi o‘rinbosari
3. M.I. Xodjayeva	— O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi raisi
4. K.M. Rafikov	— O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi
5. D.A. Vaxobov	— O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi raisi
6. M.B. Nurmuratov	— Markaziy bank raisi
7. K.A. Sharipov	— oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri
8. X.U. Umarova	— maktabgacha va maktab ta’limi vaziri
9. B.E. Zaxidov	— kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri
10. L.Sh. Kudratov	— investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri
11. A.J. Tashkulov	— adliya vaziri
12. A.A. Xudayarov	— sog‘liqni saqlash vaziri v.b.
13. Sh.X. Shermatov	— raqamli texnologiyalar vaziri
14. Sh.S. Xidoyatov	— qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri v.b.
15. I.Yu. Abduraxmonov	— qishloq xo‘jaligi vaziri
16. Sh.R. Xamrayev	— suv xo‘jaligi vaziri
17. J.T. Mirzamahmudov	— energetika vaziri
18. O.A. Nazarbekov	— madaniyat vaziri
19. A.I. Ikramov	— sport vaziri
20. I.R. Maxkamov	— transport vaziri
21. A.A. Abduxakimov	— ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri
22. B.F. Islamov	— tog‘-kon sanoati va geologiya vaziri
23. S.S. Abdullayev	— O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktori o‘rinbosari
24. Sh.D. Kudbiyev	— Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi raisi
25. I.I. Norqulov	— iqtisodiyot va moliya vazirining birinchi o‘rinbosari
26. A.R. Jumanazarov	— O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktori
27. S.T. Zuparov	— favqulodda vaziyatlar vazirining birinchi o‘rinbosari
28. U.U. Rozukulov	— “O‘zavtosanoat” AJ boshqaruv raisi

29. T.R. Muxamedjanov — “O‘zkimyo sanoat” AJ boshqaruv raisi v.b.
30. M.M. Sultonov — “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi raisi v.b.
31. M.M. Yunusov — “O‘zeltex sanoat” uyushmasi raisi
32. A.A. Sultonov — “O‘zcharmsanoat” uyushmasi raisi v.b.
33. B.B. Boboqulov — “O‘zsanoatqurilish materiallari” uyushmasi raisi v.v.b.
34. E.S. Margeshvili — O‘zbekiston ish beruvchilar konfederatsiyasi ijrochi direktori
35. M. Umarov — O‘zbekiston iqtisodiyot assambleyasi raisi
36. F.N. Jurayev — “WORLD SKILLS UZBEKISTAN” Ishchi kasblarni rivojlantirish va ommalashtirish assotsiatsiyasi boshqaruv raisi
37. Lavozimiga ko‘ra — Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktori, Respublika kengashi kotibi

Izoh:

1. Respublika kengashi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.
2. Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha Respublika kengashi raisiga mazkur kengash tarkibiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqi beriladi.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 30-
sentabrdagi PQ-345-son qaroriga
3-ILOVA

Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashining

ASOSIY VAZIFALARI

- a) Milliy malaka tizimini joriy etish va rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatini belgilash;
- b) Milliy malaka tizimi joriy qilinishini monitoring qilish, baholash va strategik rejalashtirish;
- v) Milliy malaka tizimini rivojlantirish va joriy qilish jarayoniga respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, ish beruvchilar, oliy va professional ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar hamda jamoat birlashmalarini jalb qilish hamda ularning faoliyatini muvofiqlashtirish;
- g) kasbiy malakalar bo'yicha tarmoq kengashlarini tashkil etish hamda ularning faoliyatini muvofiqlashtirish;
- d) tarmoq malaka ramkalari va kasbiy standartlar maketlari va loyihalarini tasdiqlash, ularning ishlab chiqilishini monitoring qilish hamda yangilab borilishini muvofiqlashtirish;
- e) ish beruvchilar talablarining ta'lim dasturlari mazmuni bilan o'zaro integratsiyasini kuchaytirish, ta'lim sifatini oshirishning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlash;
- j) malakalarni baholash markazlari faoliyatini akkreditatsiyadan o'tkazishni tashkillashtirish;
- z) Milliy malaka tizimining xalqaro miqyosda tan olinishini ta'minlash choralari ko'rish;
- i) Milliy malaka tizimini raqamlashtirish va tizimga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish;
- k) kasbiy standartlar sifatli ishlab chiqilishi va amaliyotda qo'llanishini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 30-
sentabrdagi PQ-345-son qaroriga
4-ILOVA

Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashlari faoliyatini tashkil etish uchun mas'ul vazirlik va idoralar ro'yxati

T/r	Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashlari nomlari	Qamrab olish doirasi	Mas'ul vazirlik va idoralar	Mas'ul mutaxassislar soni	Tarmoq kengashlariga birlashtiriladigan ta'lim tashkilotlari
-----	---	----------------------	-----------------------------	---------------------------	--

1.	Ta’lim va fan sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi	Maktabgacha va umumiy o’rta ta’lim sohasi	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi	1	A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
		O’rta maxsus, professional, oliy hamda oliy ta’limdan keyingi ta’lim sohasi	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi	1	Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi, Professional ta’limni rivojlantirish instituti
2.	Sog’liqni saqlash va farmatsevtika sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi	Sog’liqni saqlash va farmatsevtika sohasi	Sog’liqni saqlash vazirligi	1	Toshkent tibbiyot akademiyasi
			Farmatsevtika tarmog’ini rivojlantirish agentligi	1	
3.	Axborot texnologiyalari va aloqa sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi	Axborot texnologiyalari va aloqa, shu jumladan, tele-radioaloqa sohalari	Raqamli texnologiyalar vazirligi	1	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
4.	Qishloq xo’jaligi va veterinariya sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi	Qishloq xo’jaligi, veterinariya va oziq-ovqat sohalari	Qishloq xo’jaligi vazirligi	1	Toshkent davlat agrar universiteti
			Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi	1	
5.	Suv xo’jaligi sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi	Irrigatsiya va melioratsiya sohasi	Suv xo’jaligi vazirligi	1	“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti
6.	Qurilish, uy-joy kommunal xo’jaligi va qurilish materiallari sanoati sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi	Qurilish, arxitektura, kadastr va uy-joy kommunal xo’jaligi sohalari	Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi vazirligi	1	Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
			“O‘zsanoatqurilish-materiallari” uyushmasi	1	
7.	Transport va avtomobilsozlik sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi	Avtomobil, temir yo‘l, havo va boshqa transport turlari, logistika, yo‘l xo’jaligi sohalari	Transport vazirligi	1	Toshkent davlat transport universiteti
			“O‘zavtosanoat” AJ	1	
8.	Energetika sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi	Elektr energiyasi, energiya tejamkorlik va energiya audit, neft-gaz sohalari	Energetika vazirligi	1	Toshkent davlat texnika universiteti
9.	Tog‘-kon sanoati, geologiya va mineral resurslar sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi	Tog‘-kon sanoati, geologiya, geofizika va mineral resurslari sohalari	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi	1	Geologiya fanlari universiteti
10.	Ekologiya, o‘rmon xo’jaligi, gidrometeorologiya sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, o‘rmon xo’jaligi, gidrometeorologiya, chiqindilarni utilizatsiya qilish va qayta ishlash sohalari	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi	1	Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti (Green University)
11.	Turizm sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi	Turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish sohalari	Turizm qo‘mitasi	1	Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti
12.	Huquq, arxiv va davlat xizmatlari sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi	Adliya, huquq, arxiv, davlat boshqaruvi va xizmatlari sohalari	Adliya vazirligi	1	Toshkent davlat yuridik universiteti

13.	Investitsiyalar, bank va savdo sohaslarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	Investitsiya, bank, lizing, tashqi va ichki savdo sohasi	Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi	1	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
14.	Iqtisodiyot, moliya, soliq va sug‘urta sohaslarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	Iqtisodiyot, moliya, audit, soliq va sug‘urta sohasi	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	1	
15.	Ommaviy axborot vositalari sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	Ommaviy axborot vositalari, reklama, kino, video, televideniye dasturlari sohasi	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi	1	O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
16.	Mehnat va kasbiy faoliyatning yordamchi tarmoqlararo turlari sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	Mehnat munosabatlari, mehnat resurslarini rivojlantirish va boshqa barcha turdosh sohalari	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi	1	Mehnat bozori tadqiqotlari instituti
17.	Ijtimoiy himoya sohasidagi kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	Ijtimoiy himoya sohasi	Ijtimoiy himoya milliy agentligi	1	Ijtimoiy himoya tizimi xodimlarining malakasini oshirish markazi
18.	Madaniyat sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	Madaniyat, san‘at, ko‘ngilochar va dam olish, rassomchilik, yog‘och va ganch o‘ymakorligi sohalari	Madaniyat vazirligi	1	O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti
19.	Jismoniy tarbiya va sport sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	Jismoniy tarbiya va sport sohasi	Sport vazirligi	1	Jismoniy tarbiya va sport universiteti
20.	Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	Favqulodda vaziyatlar, yong‘in xavfsizligi sohasi	Favqulodda vaziyatlar vazirligi	1	Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi
21.	Standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish sohaslarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash, metrologiya sohalari	O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi	1	Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti
22.	To‘qimachilik, tikuvchilik va charm sanoati sohaslarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	To‘qimachilik, tikuvchilik, ipakchilik va charm mahsulotlarini ishlab chiqarish sohalari	“O‘zto‘qimachilik sanoat” va “O‘zcharmsanoat” uyushmalari	1	Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
23.	Elektrotexnika va mashinasozlik sanoati sohaslarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	Elektr jihozlari, maishiy elektrotexnika, kabel va sim mahsulotlarini ishlab chiqarish, mashinasozlik va asbobsozlik, nanotexnologiya va mikroelektronika sohalari	“O‘zeltexsanoat” uyushmasi	1	Elektrotexnika sanoati korxonalari xodimlari malakasini oshirish va baholash bo‘yicha “ELTECN-MALAKA” o‘quv markazi
24.	Kimyo sanoati sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	Kimyo va biotexnologiya sanoati sohasi	“O‘zkimyosanoat” AJ	1	Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Izoh: Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha respublika kengashiga tegishli vazirlik va idoralarning takliflariga binoan ularning umumiy shtat birliklari soni doirasida mazkur ro‘yxatga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqi beriladi.

Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashlarining asosiy vazifalari

- a) mehnat bozori monitoringi asosida tarmoqlarning malakalarga bo'lgan ehtiyojlari va tendensiyalarini aniqlash;
- b) mehnat bozori talablari va o'qitish natijalarini (learning outcomes) inobatga olgan holda tegishli sohalar bo'yicha tarmoq malaka ramkalarini ishlab chiqish, joriy etish va takomillashtirib borish;
- v) kasbiy standartlarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish;
- g) tarmoqda malakalarni baholash markazlarini tashkil etish, shuningdek, malakalarni baholash vositalarining ishlab chiqilishini ta'minlash hamda ekspertizadan o'tkazish;
- d) malakalarni baholash jarayonlarida korrupsiyaning oldini olish choralari ko'rish;
- e) ta'lim dasturlarining kasbiy standartlarga muvofiqligini baholash va takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;
- j) mehnat bozorini o'rganib borish, unda paydo bo'lishi kutilayotgan kasblarni klassifikatorga kiritish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;
- z) Tarmoq kengashi faoliyatida, tarmoq malaka ramkalari va kasbiy standartlarni ishlab chiqish jarayoni hamda muhokamalarida xususiy sektor vakillari bilan hamkorlikni tashkil etish;
- i) Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashi tomonidan belgilanadigan boshqa vazifalarni amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 30-
sentabrdagi PQ-345-son qaroriga
6-ILOVA

2025-2026-yillarda kasbiy standartlarni ishlab chiqish

REJA-JADVALI

T/r	Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashlari nomlari	Kasbiy faoliyat sohasi (turi) bo'yicha ishlab chiqiladigan kasbiy standartlar soni			Qamrab olinadigan kasblarning minimal soni	Mas'ul vazirlik va idoralar
		Jami	Shundan			
			2025-yil	2026-yil		
1.	Ta'lim va fan sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi	15	5	10	60	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
						Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi
2.	Sog'liqni saqlash va farmatsevtika sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi	20	5	15	80	Sog'liqni saqlash vazirligi
3.	Axborot texnologiyalari va aloqa sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi	35	10	25	140	Raqamli texnologiyalar vazirligi
4.	Qishloq xo'jaligi va veterinariya sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi	25	10	15	100	Qishloq xo'jaligi vazirligi
5.	Suv xo'jaligi sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi	5	2	3	20	Suv xo'jaligi vazirligi

6.	Qurilish, uy-joy kommunal xo‘jaligi va qurilish materiallari sanoati sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	30	10	20	120	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi
7.	Transport va avtomobilsozlik sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	50	10	40	200	Transport vazirligi, “O‘zavtosanoat” AJ
8.	Energetika sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	40	10	30	160	Energetika vazirligi
9.	Tog‘-kon sanoati, geologiya va mineral resurslar sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	30	10	20	120	Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi
10.	Ekologiya, o‘rmon xo‘jaligi, gidrometeorologiya sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	10	5	5	40	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi
11.	Turizm sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	25	10	15	100	Turizm qo‘mitasi
12.	Huquq, arxiv va davlat xizmatlari sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	5	2	3	20	Adliya vazirligi
13.	Investitsiyalar, bank va savdo sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	10	5	5	40	Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, Markaziy bank
14.	Iqtisodiyot, moliya, soliq va sug‘urta sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	10	5	5	40	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo‘mitasi
15.	Ommaviy axborot vositalari sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	10	5	5	40	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
16.	Mehnat va kasbiy faoliyatning yordamchi tarmoqlararo turlari sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	30	10	20	120	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi
17.	Ijtimoiy himoya sohasidagi kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	5	2	3	20	Ijtimoiy himoya milliy agentligi
18.	Madaniyat sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	15	5	10	60	Madaniyat vazirligi
19.	Jismoniy tarbiya va sport sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	5	2	3	20	Sport vazirligi
20.	Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	5	2	3	20	Favqulodda vaziyatlar vazirligi
21.	Standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	10	5	5	40	O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi
22.	To‘qimachilik, tikuvchilik va charm sanoati sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	5	2	3	20	“O‘zto‘qimachiliksanoat” va “O‘zcharmsanoat” uyushmalari

23.	Elektrotexnika va mashinasozlik sanoati sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	40	10	30	160	“O‘zeltexsanoat” uyushmasi
24.	Kimyo sanoati sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi	15	5	10	60	“O‘zkimyosanoat” AJ
	Jami	450	147	303	1800	

Izoh: Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha respublika kengashiga mazkur reja-jadvalga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqi beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 30-
sentabrdagi PQ-345-son qaroriga
7-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasida Milliy malaka tizimini tubdan modernizatsiya qilish hamda ushbu sohada ilg‘or xorijiy tajribani joriy etish bo‘yicha

“YO‘L XARITASI”

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas’ul ijrochilar
I. Milliy malaka tizimining metodologik, normativ-huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish					
1.	Xalqaro ilg‘or tajribalar asosida O‘zbekiston Respublikasida Milliy malaka tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish.	1. Xalqaro ilg‘or tajribalar asosida O‘zbekiston Respublikasida Milliy malaka tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi loyihasini ishlab chiqish. 2. Konsepsiya loyihasini o‘rnatilgan tartibda vazirlik va idoralar bilan kelishish hamda belgilangan reglamentga muvofiq Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2025-yil dekabr 2026-yil mart	Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida ilmiy izlanishlar o‘tkazish uchun ajratiladigan grantlar, Loyiha ofisiga ajratilgan mablag‘lar, Xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlarining grantlari va maqsadli mablag‘lari	Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi <i>(K. Sharipov),</i> Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi <i>(B. Zaxidov),</i> Savdo-sanoat palatasi <i>(D. Vaxabov)</i>
2.	Malakalarni mustaqil baholash tizimini normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlash.	1. Malakalarni baholash markazlarining amaldagi faoliyatini tahlil qilish. 2. Malakalarni mustaqil baholashga oid me’yoriy hujjatlarni (malakani baholash markazlari to‘g‘risidagi namunaviy nizom, talabgorlarning kasbiy malakasini baholash va tan olish tartibi, malakani baholash vositalarini ishlab chiqish tartibi va boshqalar) ishlab chiqish hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. 3. Har bir Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi (keyingi o‘rinlarda — tarmoq kengashi) tomonidan jami 36 ta sohani qamrab oluvchi kamida bittadan malakani baholash markazi faoliyatini to‘liq yo‘lga qo‘yish.	2024-yil dekabr 2025-yil yanvar 2025-yil may	Ijrochilarning o‘z mablag‘lari	Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi <i>(B. Zaxidov),</i> Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi <i>(K. Sharipov),</i> Savdo-sanoat palatasi <i>(D. Vaxabov),</i> tarmoq kengashlari

3.	Ta’lim sifatini ta’minlash bo’yicha vertikal boshqaruv va tashqi nazorat tizimini joriy qilish.	1. Ta’lim sifatini ta’minlash prinsiplari, instrumentlari va standartlari bajarilishini monitoring qilish bo’yicha takliflar ishlab chiqish. 2. Ta’lim sifatini ta’minlash bo’yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish. 3. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini o’rnatilgan tartibda vazirlik va idoralar bilan kelishish hamda belgilangan reglamentga muvofiq Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2024-yil noyabr 2024-yil dekabr 2025-yil yanvar	-	Loyiha ofisi (A. Xudoykulov), Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov), Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (X. Umarova)
4.	Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatorini xalqaro standartlar talablari asosida to’liq qayta ko’rib chiqish va tasdiqlash.	1. Tarmoq kengashlarining malakali mutaxassislaridan iborat ishchi guruhlarini shakllantirish. 2. Ishchi guruhlar tomonidan Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatorini xalqaro standartlar talablari asosida to’liq qayta ko’rib chiqish. 3. Yangi tahrirdagi xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatorini tasdiqlash.	2024-yil noyabr	O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining budjetdan tashqari mablag‘lari	O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (A. Jumanazarov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B. Zaxidov), Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti, tarmoq kengashlari
5.	Mashg‘ulotlarning xalqaro standart klassifikatoridan (MXSK-2008) kelib chiqib Mashg‘ulotlarning milliy klassifikatorini ishlab chiqish.	1. Mashg‘ulotlarning xalqaro standart klassifikatoridan (MXSK-2008) kelib chiqib Mashg‘ulotlarning milliy klassifikatorini ishlab chiqish. 2. Klassifikator loyihasini tegishli vazirlik va idoralar bilan o’rnatilgan tartibda kelishish hamda milliy standart sifatida tasdiqlash.	2025-yil may 2025-yil iyul	Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida ilmiy izlanishlar o‘tkazish uchun ajratiladigan grantlar	Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov), O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (A. Jumanazarov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B. Zaxidov), boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar
6.	Kasbiy standartlarni ishlab chiqish bilan bog‘liq tartib va talablarni takomillashtirish.	1. Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida kasbiy standartlarni ishlab chiqish, yangilash va joriy etish bo’yicha tartib va talablarni to’liq qayta ko’rib chiqish. 2. Kasbiy standartlarni ishlab chiqish, yangilash va joriy etishni belgilaydigan amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish.	2024-yil noyabr 2024-yil dekabr	-	Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B. Zaxidov), Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov)

7.	O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichini takomillashtirish.	1. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi (IFUT)ni takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash uchun ishchi guruh tuzish. 2. Ishlab chiqilgan takliflar asosida IFUTni takomillashtirish. 3. IFUTni o‘zbek va rus tillarida umumfoydalanish uchun joriy qilish.	2025-yil mart 2025-yil may 2025-yil iyul	Statistika agentligi mablag‘lari	Statistika agentligi (B. Begalov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norqulov), Soliq qo‘mitasi (Sh. Kudbiyev)
II. Milliy malaka tizimini joriy etish hamda malakalarni mustaqil baholash mexanizmlarini rivojlantirish					
8.	Tarmoq malaka ramkalari va kasbiy standartlarning joriy etilishi va qo‘llanishini tahlil qilish.	1. Tarmoq malaka ramkalari va kasbiy standartlarning tarmoqlarda joriy etilishi va qo‘llanishini tahlil qilish. 2. Tahlil natijasi asosida takliflar tayyorlash hamda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha respublika kengashiga (keyingi o‘rinlarda — Respublika kengashi) kiritish.	2025-yildan boshlab har chorakda	-	Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B. Zaxidov)
9.	Milliy malaka tizimini rivojlantirishga hamda malakalarni mustaqil baholashga mas’ul mutaxassislarning malakasini oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish.	1. Milliy malaka tizimini rivojlantirishga hamda malakalarni mustaqil baholashga mas’ul mutaxassislarning malakasini oshirish dasturlarini ishlab chiqish hamda kurslarni tashkil qilish. 2. Milliy malaka tizimini rivojlantirishga hamda malakalarni mustaqil baholashga mas’ul mutaxassislarning malakasini oshirishni tizimli yo‘lga qo‘yish.	2025-yil yanvar	Manfaatdor vazirlik, idora, tashkilot va malakalarni baholash markazlarining mablag‘lari	Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti, tarmoq kengashlari, malakalarni baholash markazlari
10.	Mehnat bozorida yaqin va uzoq istiqbolda paydo bo‘ladigan malaka va ko‘nikmalarni prognoz qilish metodologiyasini ishlab chiqish.	1. Xorijiy tajribalar asosida ko‘nikmalarni prognozlashtirish (“skills anticipation”), ko‘nikmalarga bo‘lgan ehtiyojlarni tahlil qilish (“skills needs analysis”), ko‘nikmalar bilan bog‘liq kamchiliklarni o‘rganish (“skills gap analysis”) vositalari va metodologiyalarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash uchun Respublika kengashiga kiritish. 2. Ishlab chiqilgan vositalar va metodologiyalarni amaliyotga joriy etish.	2025-yil may 2025-yil iyul	-	Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B. Zaxidov), Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov)
11.	Tarmoq kengashlari bilan birgalikda Milliy malaka tizimini joriy etish bo‘yicha faoliyat natijalarini muhokama qilish.	Tarmoq kengashlari bilan birgalikda Milliy malaka tizimini joriy etish bo‘yicha faoliyat natijalarini Respublika kengashida muhokama qilishni tashkil etish.	2025-yildan boshlab har chorakda	-	Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti, tarmoq kengashlari
III. Milliy malaka tizimining infrastrukturasi rivojlantirish					

12.	Milliy malaka tizimining yagona raqamli platformasini ishga tushirish.	1. Xorijiy tajriba asosida Milliy malaka tizimining raqamli platformasi bo'yicha texnik topshiriq va konsepsiyani ishlab chiqish. 2. Milliy malaka tizimining raqamli platformasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish. 3. "profstandart.uz" kasbiy standartlarning yagona ochiq portalidagi ma'lumotlar bazasini Milliy malaka tizimining raqamli platformasiga integratsiya qilish.	2025-yil yanvar 2025-yil noyabr 2025-yil dekabr	Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida ilmiy izlanishlar o'tkazish uchun ajratiladigan grantlar, Loyiha ofisiga ajratilgan mablag'lar, Xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlarining grantlari va maqsadli mablag'lari	Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti, Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh. Shermatov), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B. Zaxidov)
13.	Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutini joylashtirish va Institut faoliyatini tashkil qilish uchun mablag'lar ajratish.	1. Toshkent shahri, Olmazor tumani, Umid ko'chasi, 16-uy manzilida joylashgan Kasb-hunarga o'qitish markazi binosining 3-qavatini to'liq (barcha xonalari bilan) Institutga tekin foydalanish huquqi asosida ajratish. 2. Institut faoliyatini yo'lga qo'yish uchun belgilangan mablag'larni ajratish.	2024-yil oktabr 2024-yil noyabr	Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining mablag'lari	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B. Zaxidov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norqulov)
14.	Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining moddiy-texnik bazasini takomillashtirish.	1. Institutga ajratilgan bino va inshootlarni ta'mirlash va jihozlash, ularni zarur moddiy-texnik vositalar va aloqa vositalari bilan ta'minlash. 2. Institutni joylashtirish.	2024-yil dekabr 2025-yil aprel	Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining mablag'lari	Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B. Zaxidov)
15.	Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti faoliyatini yo'lga qo'yish.	1. Institut ta'sis hujjatlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha ishlarni tashkil qilish. 2. Institutni o'rnatilgan tartibda tanlov asosida zamonaviy talablarga mos bo'lgan yuqori malakali kadrlar bilan to'ldirish.	2024-yil noyabr Doimiy	-	Loyiha ofisi (A. Xudoykulov), Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti
16.	Kasbiy malaka tizimini rivojlantirish va tadqiqot jarayonlariga xalqaro loyiha va ekspertlarni jalb etish.	1. Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti faoliyatiga xalqaro loyiha va ekspertlarni jalb etish. 2. Milliy malaka tizimini takomillashtirish bo'yicha xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlarning mablag'larini jalb qilish.	2025-yil aprel Doimiy	Xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlarning mablag'lari	Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri (L. Kudratov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norqulov), Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti

Izoh: Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashiga mazkur "Yo'l xaritasi"ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqi beriladi.

Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining faoliyatini tashkil etish tartibi

1. Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti (keyingi o'rinlarda — Institut)ning asosiy faoliyat yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashining (keyingi o'rinlarda — Respublika kengashi) ishchi organi vazifasini bajarish;

Respublika kengashi, tarmoq kengashlari va malakalarni baholash markazlari faoliyatini tashkiliy-uslubiy, ekspert va tahliliy jihatdan ta'minlash;

tarmoq malaka ramkalari, kasbiy standartlar va baholash vositalarining ishlab chiqilishi bo'yicha umumiy nazoratni amalga oshirish, ularni ekspertizadan o'tkazish va joriy etish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirish;

ta'lim dasturlarini tegishli kasbiy standartlar yoki malaka talablariga muvofiqligi bo'yicha xulosalar berish;

malakalarni baholash markazlarini akkreditatsiyadan o'tkazish, faoliyatini monitoring qilish, ularning reyestrini yuritish va zarur hollarda ularga uslubiy yordam ko'rsatish;

Milliy malaka tizimining yagona raqamli platformasini joriy etish, texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash, boshqa axborot tizimlari bilan integratsiya qilish, shuningdek, Milliy malaka tizimi masalalari bo'yicha ma'lumotlarni kiritish, tahlil qilish va qayta ishlashni amalga oshirish;

Milliy malaka tizimini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda bu borada metodologik xizmatlar ko'rsatish;

tarmoq kengashlari a'zolari va malakalarni baholash markazlari xodimlarining malakasini oshirish;

tasdiqlangan malakaga ega shaxslar milliy reyestrini hamda kasbiy standartlar reyestrini shakllantirish va yuritish;

vazirlik va idoralardagi kasbiy malakalarni rivojlantirishga mas'ul bo'lgan mutaxassislar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga amaliy yordam berish.

2. Belgilansinki:

Institutning Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan boshqaruv va ilmiy xodimlarining umumiy cheklangan shtatlari soni 40 nafar etib belgilanadi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Mehnat bozori tadqiqotlari institutining shtat birliklari hisobidan butlanadi;

Institut direktori va uning o'rinbosari "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisi (keyingi o'rinlarda — Loyiha ofisi) direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi;

Loyiha ofisi direktoriga, zarur hollarda, Institut xodimlarining tasdiqlangan umumiy cheklangan soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida Institut tuzilmasiga o'zgartishlar kiritish huquqi beriladi;

Institut xodimlariga O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot muassasalarining tegishli lavozimlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish shartlari qo'llaniladi;

Institutga o'z vazifalarini bajarish maqsadida tegishlicha oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarning professor-o'qituvchilarini, yosh olimlar va iste'dodli talabalarni, shuningdek, xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda vaqtinchalik ilmiy guruhlarini tashkil etish vakolati beriladi;

Institut tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarning buyurtmalari bo'yicha shartnoma asosida tarmoq malaka ramkalari, kasbiy standartlar va baholash vositalarini ekspertiza qilish hamda malakalarni baholash markazlarini akkreditatsiyadan o'tkazish bo'yicha pulli xizmatlar ko'rsatiladi. Bunda ushbu xizmatlar uchun to'lov miqdorlari Loyiha ofisi bilan kelishilgan holda Institut tomonidan o'rnatilgan tartibda belgilanadi.

3. Quyidagilar Institut faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib belgilansin:

2024-yilda Bandlikka ko'maklashish jamg'armasidan ajratiladigan maqsadli ajratmalar;

2025-yildan boshlab (Bandlikka koʻmaklashish jamgʻarmasiga tegishli miqdordagi budjetdan ajratmalarni qisqartirish orqali) Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutiladigan har yillik mablagʻlar;

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamgʻarmasidan ajratiladigan mablagʻlar;

ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini amalga oshirish uchun Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ajratiladigan grantlar;

xoʻjalik faoliyatidan hamda shartnoma asosida koʻrsatilgan xizmatlardan tushadigan tushumlar;

xalqaro moliya institutlari va boshqa xorijiy tashkilotlarning grantlari;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

4. Institutga:

Milliy malaka tizimini rivojlantirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

Milliy malaka tizimini rivojlantirish sohasidagi istiqbolli loyihalarni amalga oshirish jarayonlarida ishtirok etish;

Oʻzbekiston Respublikasining milliy malakalar ramkasida nazarda tutilmagan ta'limlar boʻyicha malakalar darajasini belgilash;

malaka tizimining ishtirokchilari sifatida oʻziga yuklatilgan vazifalarni bajarmayotgan vazirlik va idoralar mansabdor shaxslarining javobgarligi masalasini koʻrib chiqish boʻyicha Respublika kengashiga takliflar kiritish huquqi berilsin.

5. Institut direktoriga Loyiha ofisi bilan kelishilgan holda Institutning budjetdan tashqari mablagʻlari hisobidan quyidagilarni amalga oshirishga ruxsat etiladi:

Institutda ishlash uchun xorijiy mutaxassislarni, shu jumladan, chet eldagi vatandoshlarni shartnoma asosida jalb qilish hamda ularning mehnatiga haq toʻlash;

Institut xodimlarini Loyiha ofisi tomonidan belgilanadigan tartibda moddiy ragʻbatlantirish.

6. Institutning shtat birliklari toʻldirilmaganligi munosabati bilan boʻshaydigan mablagʻlar, shuningdek, xodimlarning ish haqi fondidan iqtisod qilingan mablagʻlar Institut xodimlarini moddiy ragʻbatlantirishga yoʻnaltiriladi.

Institut xodimlarini moddiy ragʻbatlantirish va mukofotlash, shuningdek, Institutning budjetdan tashqari mablagʻlaridan foydalanish tartibi Loyiha ofisi tomonidan tasdiqlanadi.

7. Institut oʻzining vaqtincha boʻsh turgan budjetdan tashqari mablagʻlarini, shu jumladan, xorijiy valyutadagi mablagʻlarini Oʻzbekiston Respublikasi tijorat banklarining depozitlariga joylashtirishi va olingan daromadlarni tasarruf etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 30-
sentabrdagi PQ-345-son qaroriga
9-ILOVA

Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti faoliyatining 2025-2026-yillar uchun asosiy maqsadli koʻrsatkichlari

T/r	Koʻrsatkich nomi	Oʻlchov birligi	2025-yil	2026-yil
1.	Kasbiy standartlarni ekspertizadan oʻtkazish	ta	147	303
2.	Malakalarni baholash markazlari faoliyatini akkreditatsiyadan oʻtkazish	ta	24	30
3.	Malakalarni baholash vositalarini ekspertizadan oʻtkazish	ta	48	60
4.	Tarmoq kengashlari aʼzolari va malakani baholash markazlari xodimlari va ekspertlarining malakasini oshirish	nafar	60	80

5.	Milliy malaka tizimini rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashlari, xalqaro ekspertlar, ish beruvchilar, ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari ishtirokida seminar, konferensiya va davra suhbatlarini tashkil etish	ta	3	4
6.	Milliy malaka tizimini rivojlantirish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish	ta	3	5
7.	Tarmoq malakalar ramkalarini ekspertizadan o'tkazish	ta	24	36
8.	Milliy malaka tizimini rivojlantirish va kasbiy standartlarni takomillashtirib borish bo'yicha takliflar ishlab chiqish	ta	2	4
9.	Milliy malaka tizimini joriy qilish holati bo'yicha tarmoq kengashlarining faoliyatini o'rganish va tahliliy ma'lumotlar ishlab chiqish	ta	10	24

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.10.2024-y., 07/24/345/0784-son; 28.10.2025-y., 06/25/190/0985-son)



Tezkor va qulay
onlayn mikroqarz

100 mln

so'mgacha

Kredit foizi: 26%-30% gacha

Kredit muddati: 2-48 oygacha

